

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI VA ULARNING MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI

Yuldasheva Umida,
TDIU, "Xalqaro moliya" kafedrası DSc., professor
umida_yu@mail.ru

Negmurodova Mulkiya,
TDIU, Moliya Fakulteti talabasi
mulkiyanr@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning moliyaviy vositachilik faoliyati hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy funksiyalari tahlil qilinadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan bank islohotlari, kapitallashuv darajasining oshishi, kredit portfeli va depozitlar dinamikasi, aktivlar sifati hamda risklarni boshqarish amaliyotlari asosida tijorat banklarining zamonaviy tendensiyalari yoritiladi hamda davlat ulushi mavjud tijorat banklari bilan davlat ulushi mavjud bo'lmagan xususiy banklar faoliyati solishtirilib, ularning iqtisodiy jarayonlardagi roli va bank tizimining umumiy barqarorligiga qo'shayotgan hissasi statistik ma'lumotlar yordamida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, barqarorlik, moliya tizimi, bank tizimi, kapital, iqtisodiy rivojlanish, aktivlar.

Kirish

Bugungi kunda, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari moliya tizimining eng muhim bo'g'inini tashkil etadi. Banklar iqtisodiyotda pul resurslarini jamg'arish, ularni samarali taqsimlash va real sektorni moliyalashtirish orqali mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi taraqqiy etgan bank tizimi va banklar faoliyatiga ega bo'lmagan jamiyat rivojlana olmaydi. Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri bo'lib moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimi hisoblanadi. Shu bois, tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi

nafaqat moliya tizimining, balki butun iqtisodiy tizimning izchil rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar fonida bank tizimi tubdan yangilanmoqda. Jumladan, tijorat banklarini kapitallashtirish darajasini oshirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish, shaffoflikni kuchaytirish, shuningdek, banklarning bozor mexanizmlari asosida faoliyat yuritishga o'tishini ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ularning iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi chora-tadbirlari dasturilamal bo'lib hisoblanadi. Strategiyaning uchinchi yo'nalishida Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda quyidagilar belgilab olindi:

-bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashtirish darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

-xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" farmoniga ko'ra, moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar

yaratilgan. Shuningdek, bank tizimining joriy holatida O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining an'anaviy sohalari - kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarini ko'rsatuvchi 35 ta tijorat bankidan tashkil topganligi, mamlakatimiz mustaqilligi davrida banklar davlat ishtirokidagi korxonalarni va davlat rivojlanish dasturlarini imtiyozli foiz stavkalarida moliyalashtirishga faol jalb etgan holda muayyan maqsad va vazifalar uchun tashkil etilganligi, natijada imtiyozli kreditlarning bank tizimi umumiy portfelidagi ulushi 60 foizdan ko'proqni tashkil etganini hamda bank sektorida davlat ustun mavqega ega - 35 ta bankdan 9 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjud bo'lib, ularning kapitali bank tizimi jami kapitalning 87 foizidan ko'prog'ini, aktivlari esa umumiy aktivlarning 85 foizidan ko'prog'ini tashkil qilishi qayd qilingan.

Umuman olganda, so'ngi yillardagi islohotlardan ko'rishimiz mumkinki, banklarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat banklarning o'ziga, balki milliy iqtisodiyotning rivoji va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liq. O'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi mamlakatda barqaror va samarali bank tizimining tashkil etilganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Bank - bu tijorat muassasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lov, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi. Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi.

Zamonaviy bank nazariyasi va pul-kredit tizimi bo'yicha yetakchi iqtisodchilardan biri Frederik S.Mishkin o'zining "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" kitobida bank tizimi, moliyaviy bozorlar, pul oqimi mexanizmi va davlatning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli haqida keltirib o'tgan. Unga ko'ra, bank tizimi nafaqat moliyaviy vositachilik qiluvchi institut, balki iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning asosiy mexanizmdir. Shuningdek, tijorat banklari jamiyatda

vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jamlab, ularni real sektor ehtiyojlariga yo'naltirish orqali kapitalning samarali taqsimlanishida hal qiluvchi rol o'ynashini ham ta'kidlagan. Shu bois banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash davlatning iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalardan biri hisoblanishini aytib o'tgan. [1]

Shuningdek, bank risk-menejmenti, balans boshqaruvi, korporativ boshqaruv, aktiv-passivlar strukturasini shakllantirish bo'yicha dunyodagi eng kuchli mutaxassislardan biri Moorad Choudhry ta'kidlashicha, tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlikka erishish, avvalo, aktiv va passivlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, likvidlikni boshqarish va tizimli risklarni kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Olim bank boshqaruvi samaradorligi risklarni oldindan bashorat qilish va nazorat qilish qobiliyati bilan belgilanishini ham aytib o'tgan. Moorad Choudhry o'zining "The Principles of Banking" kitobida ham tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlikka erishish, avvalo, bank balansini boshqarishdan boshlanishini ta'kidlagan. [2]

Amerikalik iqtisodchi va bank tizimi tahlilchisi Kent S. Blasko tijorat banklari faoliyatini boshqarish, bank moliyasi, aktiv va passivlarni balanslash, hamda moliyaviy menejment yo'nalishlarida izlanishlar olib borgan. Olim o'zining "Commercial Bank Management" asarida tijorat banklarini iqtisodiy barqarorlikning markaziy instituti sifatida talqin etadi. Uning nazariyasiga ko'ra, banklar nafaqat moliyaviy vositachi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va kapitalni samarali taqsimlovchi tizim sifatida faoliyat yuritadi. Blasko bank faoliyatida uch asosiy mezonni ajratadi: strategik menejment, risk va daromad o'rtasidagi muvozanat, hamda bozor intizomi. Unga ko'ra, tijorat banki foydani oshirishga intilar ekan, riskni boshqarish va likvidlikni saqlashni ham birdek muhim deb bilishi zarur. [3]

Mahalliy iqtisodchi Qodirjon Abdurahmonov o'zining "Bank ishi va moliya bozorlari" nomli asarida tijorat banklarini milliy iqtisodiyotning "moliyaviy asab tizimi" sifatida talqin etadi. Muallifning nazariyasiga ko'ra, tijorat banklarining barqaror faoliyati mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki ular kapital oqimini taqsimlovchi, investitsiyalarni moliyalashtiruvchi va

likvidlikni boshqaruvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Abdurahmonov bank faoliyatida uch muhim yo'nalishni ajratadi: aktiv va passivlarni boshqarish siyosati, risklarni diversifikatsiya qilish va bank rentabelligini oshirish strategiyasi. Unga ko'ra, tijorat banklarining muvaffaqiyati faqat daromad hajmiga emas, balki resurslardan samarali foydalanish, kredit portfelining sifatini oshirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashga bog'liq. [4]

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas moliyaviy asosi, iqtisodiy o'sish va barqarorlikning muhim mexanizmidir. Umuman olganda, bu olimlarning g'oyalari bank tizimining barqarorligi nafaqat foyda keltiruvchi iqtisodiy faoliyat, balki jamiyatdagi moliyaviy ishonch, kapital harakati va iqtisodiy xavfsizlikning poydevori ekanini ko'rsatadi. Shu bois tijorat banklarining strategik boshqaruvi, riskni kamaytirish mexanizmlari va davlat moliya siyosati o'rtasidagi uyg'unlik milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot

metodologiyasi.

Mazkur maqolada tijorat banklari va ularning iqtisodiyotga ta'sirini analiz-sintez usulidan foydalanilib o'rganiladi va xulosalar shakllantiriladi. Shuningdek, tahlilda umumlashtirish, guruhlashtirish, taqqoslama usullar, iqtisodiy tahlil, statistika va boshqa usullar qo'llaniladi.

Tahlil

va

natijalar.

O'zbekiston moliya tizimida tijorat banklari iqtisodiy o'sishning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bank sektorining modernizatsiyasi, kredit resurslari hajmining kengayishi, kapital yetarliligi va likvidlik bo'yicha xalqaro standartlarga yaqinlashuv jarayonlari moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatning tijorat banklari tarkibida kapital hajmi ham izchil oshib bormoqda. Banklar umumiy kapitali yildan-yilga mustahkamlanib, xalqaro kapitallashuv me'yorlariga moslashmoqda.

Ko'rsatkichlar nomi	Jami		shulardan:											
			500 mlrd. so'mgacha		500 mlrd. so'mdan 1 trln. so'mgacha		1 trln. so'mdan 2 trln. so'mgacha		2 trln. so'mdan 5 trln. so'mgacha		5 trln. so'mdan 10 trln. so'mgacha		10 trln. so'm va undan yuqori	
	banklar soni	summa (mlrd. so'm)	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda
01.10.2024 y.														
Jami kapital	36	109 170	11	3,2%	4	2,3%	7	9,7%	7	22,2%	5	33,9%	2	28,5%
shundan, ustav kapitali	36	76 166	14	5,8%	8	6,3%	5	8,9%	5	22,7%	2	20,2%	2	36,0%
01.10.2025 y.														
Jami kapital	35	130 395	4	1,0%	9	4,5%	5	5,6%	7	17,0%	6	29,9%	4	42,0%
shundan, ustav kapitali	35	92 337	2	0,5%	18	11,2%	5	7,4%	4	14,5%	3	22,3%	3	44,0%

1-jadval. Tijorat banklari jami va ustav kapitali miqdori bo'yicha guruhlanishi.

Yuqoridagi statistik ko'rsatkichga ko'ra, 2024-yil 1-oktabr holatida banklar jami kapitali 109,17 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 130,39 trln so'mga yetgan. Bu 19,4 %lik real o'sishni anglatadi va bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Ustav kapitali ham xuddi shunday dinamikaga ega: 2024-yilgi 76,16 trln so'mlik ko'rsatkich 2025-yilda 92,33 trln so'mga ko'tarilib, 21,2 %ga o'sgan. Bunday tendensiya aksiyadorlar tomonidan qo'shimcha kapital jalb qilinayotgani, reinvestitsiya hajmi oshayotgani va banklarning kapital yetarliligi talablariga faol moslashayotganini ko'rsatadi. Xususan, 500 mlrd so'mgacha kapitalga ega banklar soni 2024-yildagi 11 tadan 2025-yilda 4 taga kamaydi. Eng muhim o'zgarish yirik kapitalga ega banklar guruhida kuzatilgan, ya'ni 10 trln so'mdan ortiq kapitalga ega banklar 2 tadan 5 taga ko'paygan. 500 mlrd so'mgacha ustav kapitaliga ega banklar soni 14 tadan 2 taga tushgan. Aksincha, 10 trln so'mdan ortiq ustav kapitaliga ega banklar sonining ortishi banklar o'rtasida kapitallashuvning chuqurlashayotganini, ularning majburiyatlarni bajarish qobiliyati kuchayayotganini bildiradi. Bu jarayonlar kredit risklarini kamaytirish, yirik loyihalarni moliyalashtirish salohiyatini oshirish hamda bank tizimining umumiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, 2024–

2025-yillarda bank kapitalining hajmi oshishi va uning yuqori kapitalli segmentlar tomon siljishi tijorat banklarining moliyaviy poydevori mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Kichik kapitalga ega banklar ulushining kamayishi, yirik banklar ulushining ko'payishi, ustav kapitalining sezilarli o'sishi bank tizimida kapitallashuv darajasi va risklarni qoplash imkoniyatlarining sezilarli kengayganini ko'rsatadi.

№	Bank nomi	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda	summa	ulushi, foizda
Jami		866 825	100%	582 211	100%	130 395	100%	371 453	100%
Davlat ulushi mavjud banklar		565 825	65%	394 906	68%	79 612	61%	194 166	52%
1	O'zmilliybank	145 183	17%	104 827	18%	19 435	15%	49 235	13%
2	Agrobank	100 991	12%	77 031	13%	13 709	11%	28 856	8%
3	O'zsanoatqurilishbank	95 208	11%	66 588	11%	11 381	9%	26 877	7%
4	Asaka bank	60 492	7%	40 401	7%	8 135	6%	18 974	5%
5	Xalq banki	50 105	6%	31 508	5%	10 189	8%	25 645	7%
6	Biznesni rivojlantirish banki	36 185	4%	23 737	4%	5 153	4%	13 720	4%
7	Aloqa bank	29 190	3%	17 001	3%	3 854	3%	15 410	4%
8	Mikrokreditbank	28 605	3%	20 040	3%	5 669	4%	9 068	2%
9	Turon bank	19 865	2%	13 773	2%	2 087	2%	6 381	2%

2-jadval. 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra davlat ulushi mavjud tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari.

2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, davlat ulushiga ega banklarning jami aktivlari 565,825 mlrd so'mni tashkil etib, bu bank tizimi aktivlarining 65 % ini qamrab oladi. Bu ko'rsatkich davlat banklarining iqtisodiyotdagi yirik investitsion loyihalar, infratuzilmaviy dasturlar va strategik tarmoqlarni moliyalashtirishdagi ustuvor rolini tasdiqlaydi. Kredit portfeli bo'yicha ham xuddi shunday tendensiya kuzatiladi: 394,906 mlrd so'mlik kreditlar davlat banklari hissasiga to'g'ri kelib, bank tizimidagi jami kreditlar hajmining 68 % ini tashkil etadi. Bu yuqori ulush iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashda davlat banklarining asosiy moliyaviy manba sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Kapital ko'rsatkichlarida davlat banklari jami 79,612 mlrd so'm bilan umumiy kapitalning 61 % ini shakllantirgan. Bu esa davlat banklarining barqarorlik darajasi yuqoriligi, risklarni qoplash imkoniyati kengligi hamda yirik loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy salohiyat yetarli ekanini anglatadi. Depozit resurslari bo'yicha davlat ulushi mavjud banklar 194,166 mlrd so'm depozit bazasiga

ega bo'lib, bu jami depozitlarning 52 % ini tashkil qiladi. Depozitlarning yarmini o'zida jamlagan davlat banklari aholi va korxonalarning asosiy ishonchli moliyaviy institutlari sifatida faoliyat yuritayotganligini ko'rsatadi. Alohida banklar kesimida esa O'zmilliybank, Agrobank va O'zsanoatqurilishbank yetakchilik qilmoqda. O'zmilliybank aktivlar bo'yicha 145,183 mlrd so'm bilan barcha davlat banklari ichida eng katta ulushga ega (17 %), kreditlar bo'yicha esa 104,827 mlrd so'mlik portfel bilan ajralib turadi. Agrobank qishloq xo'jaligi va agrosanoat klasterlarini moliyalashtirishdagi ixtisoslashuvini aks ettirib, aktivlarining 100,991 mlrd so'mga yetgani va kredit portfelining 77,031 mlrd so'mni tashkil etgani bilan e'tiborga molik. O'zsanoatqurilishbank esa sanoat loyihalarini moliyalashtirishdagi yetakchi institut sifatida 95,208 mlrd so'mlik aktivlar va 66,588 mlrd so'mlik kreditlar bilan uchlikni yakunlaydi.

Boshqa banklar		301 000	35%	187 304	32%	50 782	39%	177 287	48%
10	Kapital bank	51 814	6%	34 741	6%	6 385	5%	39 659	11%
11	Ipoteka-bank	50 669	6%	34 981	6%	7 437	6%	25 081	7%
12	Hamkorbank	32 479	4%	22 366	4%	6 268	5%	13 434	4%
13	Ipak yo'li bank	24 998	3%	15 200	3%	4 249	3%	13 076	4%
14	Orient Finance bank	18 339	2%	13 727	2%	3 753	3%	11 944	3%
15	Tibisi bank	14 134	2%	10 877	2%	2 533	2%	7 058	2%
16	Anor bank	13 567	2%	9 092	2%	1 292	1%	11 800	3%
17	Invest Finance bank	12 911	1%	8 045	1%	1 728	1%	9 624	3%
18	Trast bank	12 866	1%	7 407	1%	3 417	3%	8 589	2%

3-jadval. Davlat ulushi mavjud bo'lmagan ayrim tijorat banklari faoliyatining ko'rsatkichlari.

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, banklarning jami aktivlari 301 mlrd so'mni tashkil etib, bank tizimi aktivlarining 35 % ini qamrab oladi. Bu ko'rsatkich davlat banklari dominatsiyasiga qaramay, xususiy banklarning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada ekanini bildiradi. Kredit portfeli bo'yicha esa ushbu banklar 187,304 mlrd so'm miqdor bilan jami kreditlarning 32 % ini tashkil qilmoqda. Xususiy sektor banklarining kreditlashda faol ishtirok etishi kichik biznes, xizmatlar sohasi, iste'mol kreditlari hamda raqobatbardosh bank mahsulotlarining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Kapital ko'rsatkichi bo'yicha davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar 50,782 mlrd so'mlik kapitalga ega bo'lib, bu umumiy kapitalning 39 % ini tashkil etadi. Depozitlar bo'yicha esa ular 177,287 mlrd so'm miqdorida mablag' jalb qilib, jami depozitlarning 48 % ini shakllantirgan. Depozitlar bo'yicha nisbatan yuqori ulush ushbu banklarning mijozlar ishonchini qozongani va xizmatlar sifati yuqoriligini ko'rsatadi. Alohida banklar kesimida Kapital bank va Ipoteka bank xususiy sektor yetakchilari sifatida ajralib turadi. Kapital bank aktivlar bo'yicha 51,814 mlrd so'm bilan guruhning eng yirik vakillaridan biri bo'lib, kredit portfeli va depozitlar bo'yicha ham yuqori ulushga ega. Ipoteka bankning 50,669 mlrd so'm aktivlar va 34,981 mlrd so'm kreditlar bilan sektordagi o'zni mustahkam bo'lib, uning ipoteka bozori va uy-joy moliyalashtirishidagi yetakchilik pozitsiyasini tasdiqlaydi. Shuningdek, Hamkorbank, Ipak Yo'li banki, Orient Finance bank, Tibisi bank kabi o'rta miqyosli xususiy banklar o'z segmentlarida barqaror kreditlash siyosatini yuritib, mijozlar bazasini bosqichma-bosqich kengaytirmoqda.

Xulosa.

Tijorat banklari mamlakat moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya jarayonlari va pul-kredit siyosati samaradorligining bevosita ta'minotchisi sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan bosqichma-bosqich islohotlar, xususan banklar kapitallashuv darajasini oshirish, risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish, xususiy banklar ulushini kengaytirish va raqobatni kuchaytirish yo'nalishlaridagi o'zgarishlar tizimning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Ular investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda faol ishtirok etmoqda. Bank tizimining kapitallashuvi, aktivlar sifati va risklarni boshqarish darajasining yaxshilanishi esa butun milliy moliya tizimi barqarorligining mustahkam zaminini yaratadi.

Foydalanilganadabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi
3. Pul va banklar: O‘quv qo‘llanma / Sh.Z.Abdullayeva; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. -756b.
4. <https://president.uz>
5. <https://cbu.uz/uz/statistics>
6. <https://lex.uz/uz>